

XALQ TA'LIMI TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI: G'ARB KONSEPSIYALARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq ta'limi tizimini modernizatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslari G'arb mamlakatlarida shakllangan mashhur nazariyalar misolida batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda to'rtta asosiy konsepsiya — inson kapitali nazariyasi, funksionalizm, modernizatsiya nazariyasi va tanqidiy pedagogika (tenglik nazariyasi) markaziy o'rin tutadi. Har bir nazariyaning ilmiy mohiyati, mualliflari, mazkur g'oyalarning ta'lim tizimiga ta'siri va amaliy ahamiyati yoritilgan. Inson kapitali nazariyasida ta'lim iqtisodiy o'sish omili sifatida baholansa, funksionalizm ta'limning ijtimoiy integratsiya, tartib va barqarorlikni ta'minlovchi institut sifatidagi roli asoslab beriladi. Modernizatsiya nazariyasi ta'limni jamiyatning sanoat va innovatsion rivojlanishiga turtki beruvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Tanqidiy pedagogika esa ta'limni erkinlik, tenglik va adolatga erishish vositasi sifatida ko'rib, o'quvchi-o'qituvchi hamkorligini asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, inson kapitali, funksionalizm, tanqidiy pedagogika, raqamli ta'lim, inklyuziv ta'lim, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ЗАПАДНЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ИХ СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. В данной статье подробно проанализированы научно-теоретические основы модернизации системы народного образования на примере известных теорий, сформированных в странах Запада. В исследовании центральное место занимают четыре основные концепции — теория человеческого капитала, функционализм, теория модернизации и критическая педагогика (теория равенства). Раскрыты научная сущность каждой теории, их авторы, влияние указанных идей на систему образования и практическая значимость. В теории человеческого капитала образование рассматривается как фактор экономического роста; функционализм обосновывает роль образования как института, обеспечивающего социальную интеграцию, порядок и стабильность; теория модернизации трактует образование как процесс, стимулирующий промышленное и инновационное развитие общества; критическая педагогика рассматривает образование как средство достижения свободы, равенства и справедливости, выдвигая сотрудничество учителя и ученика в качестве ключевого принципа.

Ключевые слова: модернизация, человеческий капитал, функционализм, критическая педагогика, цифровое образование, инклюзивное образование, современные образовательные концепции.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE MODERNIZATION OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM: WESTERN CONCEPTS AND THEIR CONTEMPORARY INTERPRETATION

Annotation. This article provides a detailed analysis of the scientific and theoretical foundations for modernizing the national education system, based on prominent theories developed in Western countries. The study focuses on four main concepts: human capital theory,

30 functionalism, modernization theory, and critical pedagogy (theory of equality). The scientific essence of each theory, their authors, the impact of these ideas on the education system, and their practical significance are examined. In human capital theory, education is considered a factor of economic growth; functionalism justifies the role of education as an institution ensuring social integration, order, and stability; modernization theory interprets education as a process that stimulates industrial and innovative development of society; and critical pedagogy views education as a means to achieve freedom, equality, and justice, emphasizing teacher–student collaboration as a key principle.

Keywords: modernization, human capital, functionalism, critical pedagogy, digital education, inclusive education, contemporary educational concepts.

Kirish. Xalq ta'limi tizimini modernizatsiya qilishning ilmiy – nazariy asoslari Amerika va Yevropa davlatlarida yaratilgan bo'lib, ular orasidan 4 ta mashhur nazariyani alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan: -inson kapitali nazariyasi; -funktionalizm; -modernizatsiya; -tanqidiy pedagogika yoki tenglik nazariyalaridir. Nazariya mualliflari turli fan tarmoqlarida ilmiy izlashlar olib borishadi. Masalan, "Inson kaitali" nazariyasi tarafdorlari tadqiqot olib boruvchi fan tarmog'i iqtisodiyot hisoblanadi. Gumanitar fan tarog'i vakillari "Funktionalizim" nazariyasiga asos soldilar. Modernizatsiya nazariyasida fanlararo, texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy fan tarmoqlari uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Aksincha, "Tanqidiy pedagogika va tenglik" nazariyasi siyosiy hamda pedagogik muammolarnin umumiy echimiga bag'ishlanadi.

XX asr AQSh iqtisodchi olimlari Teodor Shuls, Geri Bekkerlar tomonidan asos solingan "Inson kapitali" nazariyasining yadrosini ta'lim egallaydi, uni iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida ta'riflashadi. Ya'ni, inson bu iqtisodiyotni rivojlantiruvchi sarmoya, undagi bilim, malaka, tajriba mehnat unumdorigini oshiradi[1]. Nazariya tarafdorlari o'z g'oyalarining amaldagi sinovi yakunlanishi bilan bir qator taklif va tavsiyalarni igari suradilar. Chunonchi, ta'lim sifati past bo'lgan davlatlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatgichlari cheklanadi. Binobarin, so'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan ta'limga berilayotgan e'tibor, nazariyada ilgari surilgan takliflarga to'la mos tushadi.

Teodor Shuls: "Jamiyat taraqqiyotini faqatgina moddiy sarmoya orqali ta'minlab bo'lmaydi. Rivojlanish inson bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyati kabi sarmoyalarni ham taqazo etadi. Holbuki, ta'lim, sog'liqni saqlash va malaka oshirishga tikilgan sarmoya - bu istiqbolda iqtisodiy o'sishni kafolatlaydi[5]"-degan. Ta'limning nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki ishsizlik muammosini bartaraf etishiga xizmat qilishi ham isbotlandi. Geri Bekkerning inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ta'limga sarmoya kiritish ishchining mehnat bozoridagi imkoniyatlarini oshiradi. U unumli mehnat qiladi, ishsizlik xavfi pasayadi, maoshi yuqori bo'ladi. Demak, ta'lim hamda ishsizlik darajasi o'rtasida teskari proporsional aloqa mavjud deb qaralagan.

Bunda inson kapitalining asosiy shakli bo'ladi. Ta'lim inson qobiliyatini yuzaga chiqaradi, mehnat unumdorligini oshiradi va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Har bir hukumat o'z iqtisodiyotni taraqqiyotini kafolatlashni xoxlasa, eng avvalo insonga sarmoya kiritishi ya'ni, uni o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirishga e'tibor qaratishi lozim deb ta'rif beradi[3].

Funktionalizm nazariyasi (Structural Functionalism) mualliflari Emil Dyurkgeym, Talkott Parsonslar faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Unda, ta'lim – jamiyatda muvozanatni saqlash va ijtimoiylashuv vositasi, Meritokratiya (qobiliyatga asoslangan yutuq), ijtimoiy integratsiyani ta'minlash quroli sifatida gavdalantirilgan. **Emil Dyurkgeym** ko'ra: "Ta'lim - bu jamiyat o'z-o'ziini qayta yaratish vositasidir. Ta'lim jamiyatning har bir a'zosini umumiy axloqiy qoidalar, qadriyatlar va intizom orqali mustaqil hayotga tayyorlashga xizmat qiladi"[4, - C. 79]. Olim nazariyasida ta'limga ijtimoiy hayot rakursidan turib qarashi ustuvorlik qiladi. Aksincha, inson kapitali nazariyasida ta'lim iqtisodiy kontekstda tahlil etilgan edi. Nazariyalar o'rtasidagi tafovutlarga qaramasdan, ta'limning universal funksiyalari mavjud ekanligini ham unutmaslik lozim. Ijtimoiy jihatdan ta'limni nafaqat bilimliy shaxsni tayyorlash vositasi, balki jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy institut deb qabul qilishadi. Ushbu institut faoliyati aloqiy,

jamoaviy, intizom prinsplariga tayanadi. Universallik nuqtai nazaridan qaralganda, ta'lim har qanday jamiyatda ijtimoiy me'yor va barqarorlikni ta'minlash funksiyasini bajaradi. Umumiy xulosa shundan iborat-ki, jamiyatda etarli bilimga ega bo'lmashlik ijtimoiy barqarorlikka rahna soladilar. Aholi o'trasida ishsizlik, kambag'allik, o'g'irlik va talonchilik kabi salbiy illatlar chuqur ildiz otadi.

XX asrning 50-60 yillari Evropada ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot mezonlari aks etgan "Modernizasiya nazariyasi" (Modernization Theory) paydo bo'ldi. Unda rivojlanayotgan mamlakatlar o'z taraqqiyot yo'lini bosqichma-bosqich amalga oshirishi zarurligi ta'kidlanadi. Nazariya muallifi, mutaxassisligi iqtisodchi bo'lgan Uolt Rostou ta'limga alohida urg'u beradi. Ta'lim modernizasiyaga turtki bo'ladi yoxud industuriyalizasiyaga tayyorlaydi kabi g'oyalarni ko'tarib chiqdi. Uning fikriga ko'ra, ta'lim orqali aholida yangi dunyoqarash, innovasion fikrlash, texnologiya va ishlab chiqarishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ta'lim xalq xo'jaligi uchun malakaliy kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, jadal rivojlanish (take-off) bosqichiga o'tishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[5, - C. 85]. Ushbu nazariy o'tgan asrning 60-yillarida rivojlanayotgan bir qator davlat hukumatlarini ta'limga katta sarmoya kiritishga undadi. Kiritigan sarmoy natijasida faqat shaxs rivojlanib qolmasdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar ham yangilana bordi. Nazariya mezonlari asosida, bosqichma-bosqich, izchil borgan davlatlar an'anaviy xo'jalikdan, zamonaviy jamiyatga o'ta boshladilar.

1970 – yillar "Tanqidiy pedagogika yoki tenglik" nazariyasi ommalasha boshadi. Paulo Freyre, Per Burdelar tomonidan yaratilgan nazariya ta'limni liberallashtirishga qartilgan. Ta'lim insonga nisbatan zulumni saqlash va kuchaytirish emas, balki undan saqlanish vositasi bo'lishi kerak. Paulo Freyre fikriga ko'ra: "Ta'lim – bu erkinlik kafolati, shuning uchun u hech qachon neytral bo'la olmaydi[6, -C.25]". Nazariya, Yevropa ta'lim tizimidagi inqiloblar davrida yaratildi. Shu boisdan, mualliflar an'anaviy ta'lim tizimi kamchilik va nuqsonlari ustida jiddiy izlanishlar olib boradilar. Xulosalar, ta'limni yangi metodlar asosida tashkil etish kerakligini ko'rsatadi. Ya'ni, tanqidiy fikrlashga undovchi va interfaol ta'lim usullar taklif etiladi.

Paulo Freyre nazariyasi modeli[7, -C.25]

1-jadval

Modellar	G'oyasi	Izoh
Bank ta'limi	Bu zulmning bir shaklidir. An'anaviy ta'limda o'qituvchi "Aktiv", talabalar esa "Passiv" holda bo'ladi.	Bu usul, o'quvchida jamoaviy itoatkorlikni shakllantiradi.
Real muomilaga asoslangan ta'lim	Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchining tenglikka asoslangan muloqot bo'lishi kerak	O'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda muammolarni tahlil qilishlari lozim
Tanqidiy fikrlash	Insonda o'z hayotidagi ijtimoiy adolatsizlikni anglash va uni o'zgartirish qobiliyatini shakllantiradi	Bu tanqidiy ong deb ataladi
Erkinlikka etaklovchi ta'lim	Ayniqsa, kambag'al va ezilgan toifalar uchun ta'lim ularni sub'ektga aylantiradi	O'z taqdirini o'zi boshqaruvchi insonga aylantiradi

Ta'lim tizimi modernizasiyasi o'ziga xos mukammal g'oyalarga ham tayanadi. Jumladan, -mustaqil qaror qabul qilish, tafakkurni rivojlantirish; -ta'lim jarayonini raqamlashtirish; -inklyuziv ta'lim; Fleksibil (moslashuvchan) ta'lim kabi asosiy g'oyalarni e'tirof etish mumkin.

L.S.Vigotskiy g'oyasi - o'quvchi mustaqil izlanishlari va tajribalari asosida bilim olishi zarurligini ilmiy asoslashga qaratilgan mashhur g'oyalardan biridir. U o'quvchini rivojlantirishning 5 ta yo'nalishini alohida ajratib ko'rsatadi. Jumladan, -yaqin rivojlanish zonasi; -muloqot va faoliyat; -nutq va tafakkur uyg'unligi, madaniy vositalar, -ta'lim.

Yaqin rivojlanish zonasi – o'quvchi mustaqil hal qila olmaydigan topshiriqlarni pedagog yoki ota-onasi yordamida bajarishi o'quvchini rivojlantirishiga asoslanadi; faoliyat va muloqot – bilish manbai, dastlab inson bilimi va tafakkuri ijtimoiy muhitda shakllanadi, keyin shaxsiy xususiyatga aylanishini isbotlandi. Misol uchun, bola kattalar yoki tengdoshlar bilan muloqotda turli so'zlar va tushunchalarni o'rganadi, keyinchalik ularni o'z faoliyatida mustaqil qo'llaydi; nutq va tafakkur o'quvchi fikrlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u faollikni rag'batlantirish (savol-javob, tushuntirish, mulohaza bildirish) rivojlanishga xizmat qiladi; madaniy vositalar - til, raqamlar, sur'atlar, ramzlar ta'limni rivojlantiriladi deb hisoblaydi;

L.S.Vigotskiy an'anaviy ta'limda qat'iy qaror topgan, dastlab rivojlanish, keyin o'qitish tamoili amalda o'zini oqamadi, chunki, rivojlanish istalgan yosh davrida boshqarladi, yo'naltiriladi deb ta'kidlaydi[8, -C. 169]. Umuman, L.S.Vigotskiy g'oyalari interaktiv darslar, loyiha asosida o'qitish, muammo ta'lim kabi usullarning keyinchalik ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishiga zamin hozirladi. Shuningdek, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qildi

XXI asr ta'lim tizimini modernizatsiyasini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish mushkul. Hech mubolag'asiz, bu g'oyani ta'limda tom ma'noda inqilob qildi deb aytish mumkin. Zero, raqamli texnologiyalar kirib bormagan hech bir soha yoki tarmoq qolmadi hisob. Raqamli texnologiyalar me'yoriy-huquqiy hujjatlarda[9] ta'limning muhim vositasi statusida, mustahkam o'rin oldi. XX asrning 80-yillari raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish g'oyasini Seymour Peypert ko'tarib chiqdi. U o'quvchi faol amaliy tajribalarga asoslangan bo'lishi lozim deb nomlangan nazariyani qo'llab-quvvatlab, yanada takomillashtirdi. Chunonchi, o'z g'oyasini bir qator yangi izohlar bilan boyitdi. Masalan, bilim - bu tayyor shaklda berilamaydi, balki shaxsning amali harakatlari orqali egallanadi. O'quvchi - passiv emas, faol ijodkordir. Jarayon (ta'lim jarayoni) - o'quvchi bor bilimlar tizimiga yangi ma'lumotni bog'laydi va qayta tuzadi[10, -C. 105].

Peypert Seymour raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoning muhim vositasi deb qaraydi. Ya'ni, ta'lim tizimida raqamli texnologiya (kompyuter, robototexnika, vizual modellashtirish) vositalarini tatbiq etishni taklif etadi. Bu jarayonda, o'quvchi aktiv yaratish sub'ekt bo'ladi. Ta'lim faol, hamkorlikda va ijodkorlikka asoslanishi zarur. Ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar, amaliy tajriba va shaxs yaratuvchanlik qobiliyati uyg'unligida olib borilishini tavsiya etadi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonida ommalashuviga Massachusetts texnologiya instituti professori, Nikolas Negroponte g'oyalari ta'siri ayniqsa, favqulotda kuchli bo'ldi. Nikolas Massachusetts texnologiya instituti huzurida tashkil etilgan MIT Media Lab (Mediya laboratoriyasi) loyihasiga asos soldi. 1995 yilda uning mashhur "Being Digital" kitobi nashr etildi. Asarda jamiyatning an'anaviy axborot tizimidan, raqamli axborot tizimiga o'tish jarayoni o'z ifodasini topgan. Jumladan, yirik atomlardan, bitlarga o'tish - ya'ni moddiy axborot (gazeta, jurnal, kitob) lardan, raqamli shakldagi (ekranda namoish etiladigan ma'lumot, internet) ga o'tilishi ilmiy asoslanadi. Xususan, raqamli texnologiyalarning afzalligi shunday tavsiflanadi-ki, uning yordamida har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga yarasha ta'lim oladi. Kompyuterlar individual ta'lim berish vositasi sifatida cheksiz imkoniyatlarga ega. Holbuki, raqamli texnologiyalar pedagog tomonidan barcha o'quvchilarni bir xilda qamrab olish muammosiga barham beradi. Ushbu texnologiyalar, agar ular to'g'ri yo'naltirilsa, o'quvchilarni nafaqat zarur ma'lumot bilan ta'minlaydi, balki ularda tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik va mustaqil ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi"[11, -C. 132]. Darhaqiqat, raqamlashtirish jarayoni, media, internet, kompyuterlar ta'lim jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uni butunlay o'zgartirib yubordi.

Mark Prenski g'oyasi boshqalarga nisbatan yosh bo'lib, o'zining 2001 yilda chop etilgan mashhur mashhur "Digital Natives, Digital Immigrants" nomli maqolasida asoslab bergan. Tabiiyki, g'oya yangi avlod vakillari manfaatlari ko'zda tutilib tatbiq etiladi. Uning e'tiborli jihati shunda – ki, ikki qarama-qarshi kuch o'rtasida kechadigan shiddatli kurash natijasiga qaratilgan. Raqamli immigrant (o'qituvchilar)-raqamli aborigenlar (o'quvchilar) larga qarshi kurashi asosida tahlil etiladi. Mazkur g'oyaning yadrosini, ta'lim tizimining an'anaviy, "raqamlashtirish" gacha bo'lgan

davr uslubda faoliyat yuritishi muammosi va uni bartaraf etish tashkil etadi. Asosiy muammo, raqamlashtirishga qadar bo'lgan davrda yashagan, o'qigan va tajriba orttirgan ustozlar (raqamli immigrantlar) ning raqamlashtirish davrida dunyoga kelgan, yangi fikrlash va o'rganish uslubidagi shogirdlarga (raqamli aborigenlar) dasr berayotganligida[12] deb biladi. Shubhasiz, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga yanada keng joriy etishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, hayotimizda odatiy bo'lib ulgurgan, tez-tez quloqqa chalinib turgan raqamli pedagogika, onlayn ta'lim, gibrid (aralash) ta'lim, raqamli platforma va masofaviy o'qitish texnologiyasi kabilarning keng ommalashuvi yuqoridagi g'oyalarning amaldagi ro'yobi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

So'ngi yillarda ko'pchilikka ma'lum va e'tibor kuchaygan yana bir ta'lim bu inklyuziv ta'lim hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan g'oyalardan farqliy o'laroq, ushbu g'oyani tashabbuskori alohida bir shaxs emas, aksincha YUNESKO xalqaro tashkilotidir.

1990-yilda Taylandning Jomten shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro ta'lim konferensiyasida 1990-2000 yillarda barcha bolalar, yoshlar va kattalar uchun boshlang'ich ta'lim berishga erishish tashabbusliy dasturi qabul qilindi. Dastur, 6 ta maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltirildi. Biroq, ular orasida inklyuziv ta'lim alohida qayd etilmagan. Lekin, ushbu ta'lim uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar e'tiborga olingan. Chunonchi, EFA ta'lim barcha uchun teng konsepsiyasi belgilandi, bu keyinchalik inklyuziv ta'lim g'oyasini ro'yobga chiqarishda muhim tutki bo'ldi. Oradan 4 yil o'tib, Ispaniyaning Salamanka shahrida imzolangan deklarasiyada inklyuziv ta'limning aniq prinsiplari qaror topdi. Mazkur hujjat inklyuziv ta'limni tashkil etishning xuquqiy va konseptual asosi bo'ldi. Unda, o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlariga qarab o'rta va umumiy ta'lim olish huquqi, nogironligi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablarida o'qishi shartlari belgilandi. Salamanka deklarasiyasining ahamiyati shundaki, unda ilk bor inklyuziv ta'limning rasmiy ta'rifi berildi va uning amalga oshirilishi uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tamoyillari keyin 2006-yilda qabul qilingan BMT Nogironlar huquqi konvensiyasiga asos bo'ldi. Inklyuziv ta'lim g'oyasi har bir shaxs ta'lim olish huquqi va imkoniyatlarini tenglashtirilishiga xizmat qildi. Jismoniy, ijtimoiy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim olishga sharoitlari yaratildi.

Xulosa

Xalq ta'limi tizimini modernizasiya qilishning ilmiy-nazariyo asoslari, asosan G'arb mamlakatlarida shakllangan to'rt asosiy konsepsiya - inson kapitali nazariyasi, funksionalizm, modernizasiya nazariyasi va tanqidiy pedagogika (tenglik nazariyasi) misolida tahlil qilindi. Inson kapitali nazariyasi ta'limni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida qarashga urg'u beradi, funksionalizm esa uni ijtimoiy integrasiya, barqarorlik va meritokratiyani ta'minlovchi institut sifatida talqin qiladi. Modernizasiya nazariyasi ta'limni jamiyatning sanoat va innovasion rivojlanishiga turtki beruvchi jarayon sifatida tushuntirsa, tanqidiy pedagogika ta'limni erkinlik, tenglik va adolatni ta'minlovchi vosita sifatida ko'radi va o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi asosiy prinsip sifatida ilgari suriladi. Shuningdek, maqolada XX-XXI asrda ta'limda yangi tendensiyalar - raqamli texnologiyalar, interaktiv va loyiha asosida ta'lim, hamda inklyuziv ta'lim amaliyoti ahamiyati yoritildi. Raqamli pedagogika va zamonaviy texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim esa barcha bolalarning ta'lim olish huquqi va imkoniyatlarini tenglashtirishga xizmat qiladi. G'arb konsepsiyalari va zamonaviy ta'lim usullari xalq ta'limi tizimini modernizasiya qilishda nazariy va amaliy jihatdan muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ular davlatlar uchun ta'lim siyosatini rivojlantirishda, bilimli va qobiliyatli avlodni tarbiyalashda, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda samarali instrument hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Актуальные проблемы современной экономики.//Ученые записки СПб филиала ПТА № 4 (72) 2019

2. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. American Economic Review, 51(1), 1–17. <https://doi.org/10.2307/1818907>
3. Дюркгейм Э. Социология образования / пер. с франц. Т.Г. Астахова. – М.: ИНТОР, 1996. – 79 с.
4. Ростоу У.У. Стадии экономического роста: Некоммунистический манифест / Пер. с англ. – М.: Прогресс, 1964. – С. 85.
5. Педагогика угнетённых / Пер. с англ. М. Ф. Синельниковой. – Москва: Прогресс, 2000. – С. 25
6. Выготский Л. С. *Мышление и речь*. – М.: Педагогика, 1982. – С. 169
7. ПФ-6079-сон 05.10.2020. «Рақамли Ўзбекистон-2030 (Электронный ресурс) <https://lex.uz/ru/docs/5030957?ONDATE=11.05.2022%2000> (Мрожаат қилинди 15.07.2025 йил)
8. **Пейперт Сеймур.** *Майндстормс: дети, компьютеры и могущественные идеи*. — Москва: Институт новых технологий, 2003. – С. 105
9. Being Digital / N. Negroponte; translated from English. – New York: Alfred A. Knopf, 1995. – P. 132
10. Цифровые иммигранты и цифровые аборигены https://www.company.rt.ru/social/cyberknowledge/book_cybersecurity/files/Glava_1.pdf